

ZAMONAVIY YOSHLARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATI

Yuldashaliyeva Mashrabxon Axadjon qizi

Namangan davlat Universiteti

Yuridik fakulteti

YU-HU 24 guruh stalabasi

mashrabxonyuldashaliyeva21@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada bugungi kundagi yoshlarimizning axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi hamda axborot texnologiyalarining yoshlar madaniyatini yuksaltirishda foydali va zararli tomonlari yoritiladi. Shunga eʼtibor qaratish lozimki hozirgi kundagi axborot texnologiyalari yoshlarning ilmiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada yoshlar orasidagi raqamli madaniyatni rivojlantirishning muhim jihatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni haqida fikrlar bayon qilinadi.

Kalit soʻzlar: axborot texnologiyalari, yoshlar, internet, ommaviy axborot vositalari, virtual olam, texnologik madaniyat, texnologik madaniyatning yoshlar hayotidagi oʻrni, raqamli immunitet, intellectual-elita.

Abstract: this article covers the issue of the use of information technology by our youth today, as well as the beneficial and harmful aspects of information technology in improving youth culture. It should be noted that today's information technologies are important for the scientific and personal development of young people. The article describes the important aspects of the development of digital culture among young people and its role in the development of society.

Key words: information technology, youth, Internet, mass media, virtual world, technological culture, role of technological culture in the life of young people, digital immunity, intellectual-elite.

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос использования информационных технологий нашей молодежью сегодня, а также полезные и вредные аспекты информационных технологий в повышении молодежной культуры. Следует отметить, что современные информационные технологии важны для научного и личностного развития молодежи. В статье описаны важные аспекты развития цифровой культуры среди молодежи и ее роль в развитии общества.

Ключевые слова: информационные технологии, молодежь, Интернет, средства массовой информации, виртуальный мир, технологическая культура, роль технологической культуры в жизни молодежи, цифровой иммунитет, интеллектуальная элита.

Kirish

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Internet, kompyuter va mobil qurilmalar orqali insonlar oson axborotlar olishi, muloqot qilishi, turli sohalarda rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa yoshlar axborot texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Ya'ni internet orqali dars tayyorlash, ilmiy ma'lumotlar topish, xorijiy tillarni o'rganish, turli onlayn kurslarda qatnashish hamda internet orqali o'z bizneslarini amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu esa ularning bilim va dunyo qarashlarini kengaytiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarning ta'lim sifatini oshirish maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda bu borada ko'plab qonun hujjatlari hamda davlat dasturlari qabul qilinmoqda.

Bular barchasi yosh avlodni zamonaviy bilimlarini yuksaltirishga va axborot texnologiyalari sohasidagi huquqlarini ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Yuqorida ta'kidlaganimizdek bu huquqiy asoslar yoshlarning axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini oshirishga qaratiladi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

Yoshlarga oid davlat siyosati;

Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida prezident qarori;

“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida;

Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni.

Ushbu davlat dasturlari va qonun hujjatlari yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o'rin tutadigan ta'lim sifatini yaxshilash, ularning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish va chuqur bilim salohiyatga ega, yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida qabul qilinmoqda.

Ta'lim bir asrdan ko'proq vaqt davomida ta'lim tizimining turli jarayonlarini kengaytirish va rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanganligini hisobga olib, yangi texnologiyalar kelishi bilimlarni taqdim etishning turli usullari bilan bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirgani ajablanarli emas. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar universitetlarida texnologik bazada ta'lim olish mumkin. Onlayn o'qitish va masofadan o'qitish yangi asrdagi yangi ta'lim shakllari qatoriga kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston respublikasida axborot texnologiyalaridan foydalanish Konstitutsiyaviy darajaga ko'tarilgan. Bu haqida O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi qabul qilingan Konstitutsiyaning 30- moddasiga muvofiq

- Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.
- Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

- Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta`minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Zamonaviy yoshlarni axborot texnologiyalardan foydalanishdagi madaniyatini shakllantirish, tizimli foydalanish jarayonini yo‘lga qo‘yish va axborot texnologiyalardan foydalanish madaniyatini yuksaltirishda qonuniylikka asoslangan metodlaridan foydalanamiz, xususan tizimlilik metodidan foydalanamiz. Chunki yoshlar bilan axborot texnologiyalardan foydalanish jarayonida shug‘ullanmasak qonunbuzilishi, jumladan kiberjinoyatchilik kuchayishi mumkin.

Natija va muhokama

Davlat tomonidan yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta`minlash, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash hamda jamiyatdagi o‘rni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunida ham yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish to‘g‘risida muhim tashabbuslar ilgari surilgan edi va samarali natijalarga erishilmoqda. Masalan hududlarda Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etilib “Bir million dasturchi” kabi o‘nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yosh avlodni texnik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Albatta bu ijobiy natijalardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yoshlarning IT-madaniyati ikki qrama-qarshi qutbdan iborat: ijobiy hamda salbiy. Ijobiy tomoni shundan iboratki ta`lim sohasini oladigan bo‘lsak, global bilimlar bazasiga kirish va masofaviy ta`lim olish, ta`lim olishda ma`lumotlarni tezkor qidirib topish va yana boshqa soxalarda dunyoqarashning kengayishi, yangi platformalar, startaplar va raqamli tadbirkorlik orqali daromad topish kabilarga ega bo‘lmoqdalar. Raqamli madaniyatning pastligi tarmoqda anonimlik niqobi ostida axloqsiz hatti-harakatlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatda kiber-etika normalarini huquqiy va ma`naviy darajada tartibga solishni taqozo etadi.

Bunda raqamli tabaqalanish ya`ni texnologiyalardan unumli foydalanadigan yoshlar “intelektual elita”ni shakllantirsa, faqat ko‘ngilochar kontent iste`molchilari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ortda qolish xavfi ostida qolmoqda. Axborot texnologiyalari o‘z-o‘zidan madaniyatni shakllantirmaydi. U faqat vositadir. Madaniyatni shakllantirish uchun yoshlarda “Raqamli immunitet” – ya`ni axborotni saralash, vaqtni boshqarish va etika qoidalariga rioya qilish ko‘nikmasini tarbiyalash zarur.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yoshlarning axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki shaxsning ma`naviy-axloqiy qiyofasini, ijtimoiy mas`uliyatini va intellectual salohiyatini belgilovchi fundamental omildir. Raqamli transfotmatsiya davrida yoshlar axborotning shunchaki iste`molchisi emas, balki uning yaratuvchisi va tarqatuvchisiga aylandi. Bu esa o‘z navbatida, global tarmoqdagi xatti-xarakatlar uchun yuksak darajadagi madaniyatni talab etadi. Texnologiyalar insonni emas balki, inson texnologiyalarni boshqarishi, ulardan

oʻzining maʼnaviy va intellektual kamoloti yoʻlida foydalanishi zamonaviy dunyoqarashning asosiy mezoni boʻlib qolishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 30 aprel.
- 2.Vazirlar Mahkamasining Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi qarori.
- 3.Axborot texnologiyalari sohasida taʼlim tizimini yanada takomillashtirish,ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida prezident qarori.
- 4.“Raqqamli Oʻzbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida;
- 5.Bolalarni ularning sogʻligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi qonuni.